

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUSHNAZAROVA MA'MURA NODIROVNA

**AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI
IJTIMOIY-PEDAGOGIK AMALIYOTGA TAYYORLASH METODIKASI
(Ijtimoiy pedagogika fani misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)
on pedagogical sciences**

Xushnazarova Ma'mura Nodirovna

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi (Ijtimoiy pedagogika fani misolida) 3

Хушназарова Маъмура Надировна

Методика подготовки будущих учителей к социально-педагогической практике с использованием аксиологического подхода (на примере предмета Социальная педагогика) 31

Xushnazarova Mamura Nodirovna

Methodology for preparing future teachers for social and pedagogical practice using the axiological approach (On the example of social pedagogy) 59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publications 62

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUSHNAZAROVA MA'MURA NODIROVNA

**AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI
IJTIMOIY-PEDAGOGIK AMALIYOTGA TAYYORLASH METODIKASI
(Ijtimoiy pedagogika fani misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Ped611 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.adpi.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sirojiddinov Behzod Arabdjonovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Azimova Ziyoda Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xadjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Tayirova Madina Bahtiyorovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 raqamli Ilmiy kengash asosida fan doktori (DSc) ilmiy darsjasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70, e-mail: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz. Andijon davlat pedagogika instituti, ma’muriyat binosi, 2-qavat, 208-kengashlar xonasi)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy.) Tel.: (374) 224-01-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____da tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.M.Rasulov

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

D.T.Samatov

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash
kotibi, p.f.d., professor

Z.E.Azimova

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyot yoʻlida erishgan eng muhim yutuqlari qatorida oʻz madaniy, maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash ustuvor ahamiyatga ega ekanligi kuzatiladi. Bugungi kunda dunyoda globallashtirish jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid, xatarlar tobora koʻpayib borayotgan murakkab va tahlikali vaziyat taʼlim sohasida amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. YuNESCO tashkilotining 2020-yildagi xalqaro taʼlim monitoringi hisobotida boʻlajak oʻqituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash jarayoni haqida quyidagi mulohaza bildirilgan: “boʻlajak oʻqituvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, kelgusi pedagogik faoliyatiga aksiologik munosabatlarni tarkib toptirish, natijada demokratik jamiyatda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning birlamchi vositasi sifatida qaralishga erishiladi. Hozirgi kunda taʼlim mazmunini mazkur munosabatlarga asoslanib shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda¹”.

Dunyoda boʻlajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, ularning ijtimoiylashuvini taʼminlash, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, pedagogika fanining eng samarali usullari interpretatsiyasidan keng foydalanish, kasbiy kompetentlikning aksiologik komponent klassifikatsiyasi va xususiyatlariga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari taʼlim va oʻqitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish hamda oliy taʼlim muassasalari faoliyatining sifat koʻrsatkichlarini belgilash orqali aksiologik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy taʼlim muassasalarida talabalarda aksiologik munosabatlarni rivojlantirish orqali ijtimoiy-pedagogik amaliyotga yoʻnaltirishga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda². Jumladan, Slovakiyada “Universitet oʻquv dasturlarida aksiologik yondashuv” (“Axiological Approach as a Factor of University Curriculum”), Chili davlatida “Maktablardagi taʼlim loyihalarining aksiologik tahlili” (“Axiological Study of Educational Projects in Schools Chili”), Rossiyada “Klassik universitetda tadqiqotchi oʻqituvchilarni tayyorlashda aksiologik komponent” (“Axiological Component of Research Teacher Training at a Classical University”) kabi loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, taʼlim oluvchilarning ijtimoiy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan

¹UNESCO: Global Education Monitoring Report 2020. Inclusion and education: All means all. Summary//United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), 2020. – P. 9.

² Antoniuk, V.Z., Alendar N.I., Bartkiv O.S., Honcharuk O.V., Durmanenko O.L. (2021). Axiological approach in professional pedagogical education. *Linguistics and Culture Review*, 5(S4), 2021. – 687-699.; Торева Т.А. Aksiologический компонент подготовки педагогов-исследователей в классическом университете: педагогические и философские аспекты https://xlinguae.eu/files/XLinguae2_2024_18.pdf?utm_source; Вестник Московского университета. Серия 20. Педагогическое образование. 2025. Т. 23, № 1. – С. 28-53.

islohotlar ta'limni insonparvarlashtirish, bo'lajak pedagoglarda aksiologik munosabatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga, milliy pedagogika fani oldida oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zarurati mavjud. Bu borada oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning aksiologik mezon va ko'rsatkichlarni aniqlashtirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrda qabul qilingan O'RQ-585-son "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni⁴, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni⁵, 2022-yil 22-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁶, 2025-yil 28-apreldagi PF-73 sonli "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁷, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-oktyabrdagi 655-son "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁸, 2022-yil 11-apreldagi 169-son "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori⁹ va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

³ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-dekabrda qabul qilingan O'RQ-585-son "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2019-y., 03/19/585/4096-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 19.08.2023-y., 03/23/863/0627-son.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.03.2021-y., 06/21/6181/0182-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyundagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-yil 07/22/289-son. <https://lex.uz/docs/-6079561>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73 son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7499721>.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-oktyabrdagi 655-son "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2020 y., 09/20/655/1412-son. <https://lex.uz/docs/-5068549>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 169-son "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2022-y., 09/22/169/0292-son. <https://lex.uz/docs/-5952104>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Aksiologik yondashuv va uning asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning bir qator oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Harvard Universiteti (AQSH), Toronto Universiteti (Kanada), Myunxen Texnika Universiteti (Germaniya Federativ Respublikasi), Seul Milliy Universiteti (Janubiy Koreya), Moskva davlat universiteti (Rossiya) kabi oliy ilmiy-tadqiqot institutlarida olib borilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: ta‘lim jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning ahamiyati, oliy ta‘lim muassasalarida axloqiy tarbiyani kuchaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy mas‘uliyatni oshirish (Harvard universiteti); aksiologik yondashuvning pedagogik amaliyotdagi roli va uning talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ta’siri (Toronto universiteti); ta‘lim jarayonida mavjud qadriyatlarning avloddan avlodga o‘tish – uzatilish jarayonining ilmiy tadqiqi va samarali strategiyalari (Myunxen texnika universiteti); Koreya ta‘lim tizimida aksiologik yondashuvning qo‘llanilishi, uning ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy-axloqiy jihatdan rivojlanishiga ta’siri tahlili; pedagogik faoliyatda qadriyatlar tizimini shakllantirishning metodik tizimi va ta’minoti (Moskva davlat universiteti) tadqiq qilingan¹⁰.

Jahonda aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy etikasi, pedagogik qadriyatlari va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlanish jarayoni tadqiqi; zamonaviy raqamli va interfaol ta‘lim texnologiyalarini ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tatbiq etish, ularning samaradorligini baholash va didaktik strategiyalarni ishlab chiqish; ijtimoiy-pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va tahlil qilish uchun indikatorlar va diagnostik vositalarni yaratish; bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, tanqidiy yondashuv va kommunikativ mahoratini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar; ijtimoiy-pedagogik amaliyotda etnik, madaniy va gender xilma-

¹⁰Anderson J. (2008). The Matter of Civic and Moral Education. Harvard Graduate School of Education News, 2008. – P. 66.; Ontario Institute for Studies in Education (OISE). (2023). Community of Practice Annual Report 2023. Toronto: University of Toronto, 2023. – P. 8.; Fröhlich M., Welpel I. (2024). Self-Selection into Entrepreneurship Education and Implications for Evaluation. Entrepreneurship Education and Pedagogy, SAGE Journals 2024. – P. 204.; Haase M. Entrepreneurial Motivation: The Role of the Opportunity, Team, and Uncertainty. Munich: Technical University of Munich, 2020. – p. 239.; Pyatygina T. A. (2021). Pedagogical Conditions for the Formation of Professional Competence of Future Teachers in the Context of Digitalization. Yekaterinburg: Russian State Vocational Pedagogical University, 2021. – P. 1-12.

xillikni hisobga olgan holda inklyuziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etish; talabalarning kasbiy rivojlanishida emotsional intellekt va refleksiya jarayonlarini tahlil qilish, psixologik moslashuv va pedagogik stresslarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish; o'quv-tarbiya jarayonida mahalliy hamjamiyat, nodavlat tashkilotlar va davlat muassasalari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash bo'yicha strategik tadqiqotlar; o'qituvchilik kasbining xalqaro tajriba va standartlar asosida rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganish, ta'lim migratsiyasi va akademik mobillikni tahlil qilish; talabalarning ijtimoiy-emotsional ta'lim jarayonida psixologik chidamliligini mustahkamlash kabi yo'nalishlarda tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy sharoitda talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashga doir ilmiy-tadqiqiy ishlar falsafiy, psixologik-pedagogik hamda metodik yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-pedagogik amaliyotning falsafiy-metodologik, pedagogik-psixologik hamda ijtimoiy jihatlari Sh.Q.Mardonov, U.I.Mahkamov, G.I.Maxmutova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, N.M.Ochilova, Z.E.Azimova, O.R.Jamoliddinova, V.M.Karimova, B.X.Rahimov, N.M.Egamberdiyeva, A.A.Bolteyev, M.M.Turg'unov, A.T.Teshayev, A.M.Qudratov, M.Hoshimxonov, A.A.Abdullayev, B.R.Turg'unov, M.Y.Inomova¹¹ kabi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tahlil etilgan. Aksiologiya, aksiologik yondashuv hamda pedagogik oliy ta'limda aksiologik yondashuvlar so'nggi yillardagi bir qator tadqiqiy izlanishlar

¹¹ Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: ped. fan. dok. ...diss. – T.: 2006. – 302 b.; Mahkamov U.I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: ped. fan. dokt. ... diss. – T.: O'zPFITI, 1998. – 249 b.; Maxmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari: ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T.: O'zPFITI, 2004. – 22 b.; Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: ped. fanl. dokt. ...diss. – T.: 1993. – 364 b.; Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: ped. fan. dok. ... diss. –T.: O'zPFITI, 2000. – 305 b.; Ochilova N.M. Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish: ped. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: O'zPFITI, 2007. – 22 b.; Azimova Z.E. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish (oliy ta'lim muassasalari misolida): ped. fanlari dokt. diss. – Nukus, 2019. – 208 b.; Jamoliddinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: avtoref. ... ped. fan. dok. – T., 2015. – 83 b.; Karimova V.M. Tolerantlikning oilaviy an'ana, urf-odat va udumlar, maishiy o'zaro munosabatlarda aks etishi // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – T.: 2007. – 62-66-b.; Rahimov B.X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: ped. fan. nom. ... diss. avtoref. –T.: O'zPFITI, 2005. – 24 b.; Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): ped. fan. dok. ... diss. – T., 2010. – 332 b.; Bolteyev A.A. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish: pedag. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Nukus, 2025. – B. 56.; Turg'unov M.M. Bo'lajak pedagoglarni ta'limiy qadriyatlar asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: pedag. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Farg'ona: 2025. – B. 59.; Teshayev A.T. Talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishda "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish: pedag. fanlari bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 57.; Qudratov A.M. O'zbekistonda volontyorlik faoliyatini rivojlantirishda yoshlar ishtirokini oshirish mexanizmlari: falsafa fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 56.; Hoshimxonov M. Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish (Boborahim Mashrab asarlari misolida): pedag. fanlari fan doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 74.; Abdullaev A.A. Fuqarolik jamiyati rivojida yoshlar ijtimoiy faolligi oshirishining ijtimoiy-falsafiy tahlili (ijtimoiy-falsafiy tahlil): falsafa fanlari falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 58.; Turgunov B.R. Talabalarda intellektual salohiyat namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: psixol. fanlari falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 59.; Inomova M. Y. Talabalarning bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: pedag. fanlari falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 44 b.

obyekti sifatida, tadqiqotchilar tomonidan aksiologik yondashuvga doir ilmiy-nazariy masalalar D.M.Iskandarova, U.A.Azimov, Sh.B.Djumaqulov, G.M.Raxmatullayeva, O.Ch.Xolov, N.S.Yuldasheva, J.A.Yuldashev, Z.I.Odinayeva¹² kabilar tomonidan o'rganib chiqilgan.

MDH olimlaridan R.K.Bikmuxametov, E.V.Bondarevskaya, N.M.Boritko, I.V.Garmaza, B.S.Gershunskiy, V.P.Zinchenko, E.A.Klimov, M.A.Makarevich, G.A.Melekesov, A.V.Mudrik, I.P.Podlasiy, Y.A.Raysvix, V.A.Slastenin, I.F.Isayev, A.V.Lubkov, E.V.Siganova, I.A.Cherkashin¹³lar ilmiy ishlarida aksiologik yondashuvga doir qarashlar o'z ifodasini topgan.

Xorij olimlaridan H.K.Anheier, L.M.Salamon, L.Chen, M.Gonzalez, H.von Hartmut, G.Hofstede, J.Gert, S.Kenny, L.Hogan, A.McNevin, P.L.Landsberg, L.Gordon, K.Wai-Wai, J.E.Marica, S.L.Archer, J.Marshall, A.McCulloch, J.Mohan, P.Smith, S.A.Mecomber, Richard M.Herman, J.Smith, L.Sorrenti, C.Caparello, C.Meduri, P.Filippello, Y.Tanaka, J.Walton, N.Sullivan, F.Woolley¹⁴

¹² Iskandarova D.M. Zamonaviy talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasining ijtimoiy falsafiy tahlili (Farg'ona vodiysi OTMLari talabalari misolida): falsafa fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Andijon, 2024. – B. 54.; Azimov U.A. Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari: falsafa fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Namangan, 2022. – B. 58.; Djumaqulov Sh.B. Aksiologik yondashuv asosida talabalarining fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish: pedagog. fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2022. – B. 56.; Raxmatullayeva G.M. Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga aksiologik munosabatni rivojlantirish texnologiyasi: pedagog. fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Farg'ona, 2022. – B. 61.; Xolov O.Ch. Xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish: pedagog. fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Termiz, 2022. – B. 59.; Yuldasheva N.S. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagog. fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2022. – B. 57.; Yuldashev J.A. Tarixni o'qitish jarayonida talabalarining aksiologik dunyoqarashini rivojlantirish metodikasi: pedagog. fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Namangan, 2022. – B. 57.; Odinayeva Z.I. O'zbek milliy identikligi aksiologik tamoyillari va qonuniyatlariga falsafiy konseptual yondashuv: falsafa fanlari falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 60.

¹³ Бикмухаметов Р.К. Интеграция духовного и физического воспитания будущих педагогов в профессе личностно-профессионального развития: дисс. док. пед. наук. – Казань, 2004. – 451 с.; Бондаревская Е.В. Ценностные основания личностно-ориентированного воспитания // «Педагогика», 1995/№4. – С. 29-36.; Борытко Н.М. Педагог в пространствах современного воспитания. – Волгоград: ОИПОПК, 2001. – 211 с.; Гармаза И.В. Поликультурная образовательная среда колледжа как фактор обогащения духовного опыта обучающихся: автореф. дисс. кан. пед. наук. – Оренбург, 2016. – 23 с.; Гершунский Б.С. Образовательная педагогическая прогностика. Теория, методология, практика: Учебное пособие. – М.: Наука, 2003. – 768 с.; Зинченко В.П. Опыт думания о думании // В кн.: Методология психологии: проблемы и перспективы / Науч. ред.: Т.Г.Щедрина. Под общ. ред.: В.П.Зинченко. – М.: СПб.: Центр гуманитарных инициатив, 2012. Гл. 10. – С. 207-230.; Климов Е.А. Как выбирать профессию. – Москва: "Просвещение", 1990. – С. 46.; Макаревич М.А. "Ценность". Энциклопедический социологический словарь / Под ред. Г.В.Осипова. – М.: Изд-во ИСПИ РАН (1995): 871-872.; Мелекесов Г.А. Развитие аксиологического потенциала личности будущего учителя: автор. ... доктор. пед. наук. – Оренбург, 1999. – 40 с.; Мудрик А.В. Социальная педагогика: учебник для студ. Учреждений высш. проф. образования / А.В.Мудрик. – 8-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 240 с.; Подласий И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. – 83 с.; Райсвих Ю.А. Формирование аксиологической направленности будущего учителя: автореф. ... дисс. кандидата педагогических наук. – Челябинск, 2009. – 24 с.; Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Лубков А.В. Гуманистическая парадигма и личностно ориентированные технологии профессионально-педагогического образования. – М.: Магистр-Пресс, 1999. – 23 р. (235); Цыганова Е.В. Педагогические факторы развития духовно-нравственного потенциала подростков в период социальной реформации: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Якутск, 2008. – 20 с.; Черкашин И.А. Интеграция духовного и физического воспитания юношей в этнокультурном пространстве: организация ва управление: дис. ... док. пед. наук. – Якутск, 2008. – 373 с.

¹⁴ Anheier H.K., Salamon L.M. Volunteering in cross-national perspective: Initial comparisons. Civil Society Working Paper 10. 2001. – P. 5.; Chen L. Traditional Values and Religious Principles in Eastern Societies. Journal of Cultural Studies, 20(3), 2018. – P. 102-115.; Gonzalez M. The Role of Human Rights in European Political Culture. European Journal of Social Sciences, 12(4), 2019. – P. 45-58.; H. von Hartmut. Ah, the Values!: On Education for the 21st Century: A Public Awareness of Ambiguous Tasks. About an education for the 21st century

oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga oid empirik tadqiqotlar o'tkazganlar. Ammo, aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasiga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning mazmunini ijtimoiy mas'uliyatni adekvat namoyon bo'lish darajasini belgilash orqali aniqlashtirish;

talabalarni aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash mezonlari talablar bilan integrativligini ta'minlash asosida takomillashtirish;

aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning metodik ta'minotini ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samaradorligini muntazam baholab borish asosida takomillashtirish;

talabalarni ijtimoiy faoliyatga aksiologik munosabatini rivojlantirish texnologiyasini shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini identifikatsiyalash asosida takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasini o'quv jarayonida foydalanishga qaratilgan interfaol treningni rekursiv mexanizmlari bilan adaptiv moslashtirish orqali takomillashtirish.

//Beltz. 2015. – 23 p. (465).; Hofstede G., Gert J. Cultures and organizations: software of the mind (Revised and expanded 2nd ed.). New York: McGraw-Hill, 2005. – P. 56.; Kenny S., Hogan L., McNevin A. Voluntary activity and local government: managing volunteers or facilitating active citizenship?. *Social Alternatives* 27.2 (2008): 45-49.; Landsberg P.L. *The Experience of Death: An Outline of the Philosophy of Religion*. London: Harvill Press. 1991; Liu, Gordon and Wai-Wai Ko. "Social alliance and employee voluntary activities: A resource-based perspective". *Journal of Business Ethics* 104, 2011. – P. 251-268.; Marica J.E., & Archer S.L. *Identity Status Interview: Late Adolescent College Form. A handbook for psychosocial research*, New York: Springer-Verlag, 1993. – P. 303-317.; Marshall J. *Voluntary Activity and the State. The Role and Impact of Government Involvement in Rural Communities in Canada: A Commentary and Review of the Literature* 99 (1999).; McCulloch A., Mohan J., Smith P. "Patterns of social capital, voluntary activity, and area deprivation in England". *Environment and Planning A* 44.5 (2012): 1130-1147.; Mecomber S.A., Richard M. Herman. *Effects of local hypothermia on reflex and voluntary activity. Physical Therapy* 51.3 (1971): 271-282.; Smith J. *The American Ideals of Individualism and Economic Growth. Journal of Social Sciences*, 34(2), 2020. – P. 156-172.; Sorrenti L., Caparello C., Meduri C., Filippello P. *The Mediating Role of School Refusal in the Relationship Between Students' Perceived School Atmosphere and Underachievement. European Journal of Investigation in Health, Psychology and Education* 15:1, 2024.; Tanaka Y. *Economic Growth and Cultural Values in the Asia-Pacific Region. Asian Economic Review*, 29(1), 2021. – P. 72-85.; Walton J., Sullivan N. *Men of Prayer: Spirituality of Men With Prostate Cancer: A Grounded Theory Study // Journal of holistic nursing*, Vol. 22 No. 2, June 2004. – P. 137.; Woolley F. *Social cohesion and voluntary activity: making connections. Centre for the Study of Living Standards*, 1998.

Tadqiqotning obyekti sifatida aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash jarayoni bo'lib, tajriba sinov ishlarida Andijon, Namangan va Navoiy davlat pedagogika institutlari "Pedagogika" ta'lim yo'nalishining jami 369 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqot predmeti aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning mazmuni, texnologiyalari va pedagogik shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish; sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning mazmuni pedagogik aksiologiya va ijtimoiy pedagogikaning fanlararo integratsiyasi bilan qadriyatlarga asoslangan axloqiy me'yorlar va jamoaviy ijtimoiy mas'uliyatni adekvat namoyon bo'lish darajasini belgilash orqali aniqlangan;

talabalarni aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning nazariy asoslari va mezonlari ekzistensial pedagogikada keltirilgan o'z-o'zini anglash, umummadaniy, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni muloqotchanlik, ijtimoiy, hayotiy-amaliy kompetensiyaviy talablar bilan integrativligini ta'minlash asosida aniqlangan;

aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodik ta'minotni amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlari aksiome'yoriy yondashuv talablari asosida o'quv-pedagogik amaliyotni tashkil etish bilan topshiriqli-amaliy yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samaradorligini muntazam baholab borish asosida aniqlangan;

"Ijtimoiy pedagogika" fani misolida talabalarning ijtimoiy faoliyatga aksiologik munosabatini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalari kognitiv moslashuvchanlik, kontekstual didaktika va shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosiy tamoyillari bilan "bilim – qadriyat – faoliyat" birligini epistemologik kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan identifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashga doir uslubiy ko'rsatmalar reflektiv pedagogika va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalari bilan hissiy intellekt, kollaborativ o'rganish, interfaol treningni rekursiv mexanizm sifatida talqin qilish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Pedagogika ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan "Ijtimoiy pedagogika" darsligi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug'i bilan berilgan 277-353 raqamli nashr ruxsatnomasi);

“Obshaya pedagogika (Teoriya pedagogiki)” darsligi ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 416168995487272876-raqamli nashr ruxsatnomasi);

“Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning kontseptual-amaliy jihatlari” nomli dasturiy mahsulotga DGU olingan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan berilgan 2025-yil 15-martdagi №DGU48657 sonli guvohnoma);

“Talaba-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari” nomli dasturiy mahsulotga DGU olingan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan berilgan 2025-yil 17-apreldagi №DGU49751 sonli guvohnoma);

ijtimoiy-pedagogik amaliyotga aksiologik munosabatni rivojlantirishning metodik-didaktik shart-sharoitlarini baholashning mezonlari aniqlangan va tajriba-sinov ishlarida qo‘llanilgan;

aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonshiligi. Mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilgan pedagogika sohasidagi ilmiy-tadqiqot metodlariga asoslanganligi, qo‘llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani; keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari asosida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Shuningdek, natijalarning ishonchliligi Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamlari, OAK e‘tirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar e‘lon qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot doirasida talaba-yoshlarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash mazmuni, ularda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlari, ayniqsa, qadriyatlarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy tahlillar olib borilib, yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqildi. Bu esa aksiologik jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy mas‘uliyat, kasbiy etik qadriyatlar va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini ta‘minlovchi omillar sifatida ishlab chiqilgan metodologik tamoyillar, pedagogik model komponentlari va ularning aksiologik yondashuvga asoslanganligida namoyon bo‘ladi. Bu esa pedagogik aksiologiyaning nazariy paradigmasini kengaytirish va uni zamonaviy pedagogik tadqiqotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati takomillashtirilgan pedagogik model va metodik ta‘minot pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorgarlik sifatini oshirishda bevosita qo‘llash imkoniyatini beradi. Adaptiv mualliflik metodlari, yondashuvlari “Ijtimoiy pedagogika” fanini o‘qitsihning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvini ta‘minlash orqali talabalarda kasbiy va ijtimoiy mas‘uliyatni rivojlantirishda samarali vosita sifatida

qo'llaniladi. Mazkur metodika va yondashuvlar orqali talabalar nafaqat kasbiy bilimlar, balki shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirib, tanqidiy fikrlash va axloqiy dilemmalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini takomillashtirish, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiya qilish orqali ta'lim sifatini oshirishda keng qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

pedagogik aksiologiya va ijtimoiy pedagogikaning fanlararo integratsiyasi bilan qadriyatlarga asoslangan axloqiy me'yorlar va jamoaviy ijtimoiy mas'uliyatni adekvat namoyon bo'lish darajasini belgilash orqali aniqlashtirilgan bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning mazmuniga doir fikr-mulohazalar "Obshaya pedagogika (Teoriya pedagogiki)" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 416168995487272876-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning konseptual jihatlari, strategik yo'nalishlari aniqlashtirilgan va kasbiy-pedagogik faoliyatiga kolleboratsiya qilishga erishilgan;

ekzistensial pedagogikada keltirilgan o'z-o'zini anglash, umummadaniy, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni muloqotchanlik, ijtimoiy, hayotiy-amaliy kompetensiyaviy talablar bilan integrativligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan talabalarni aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning nazariy asoslari va mezonlariga oid uslubiy tavsiyalar Germaniya Federativ Respublikaning Bremen shahridagi Grone ta'lim tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan WAE-9-2024 "Talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy-statistik tahlili" (Scientific and statistical analysis of the development of students' social activity) ilmiy loyihasi konsepsiyasini shakllantirishda qo'llanilgan (GFR Grone ta'lim tashkilotining 2025-yil 19-martdagi ma'lumotnomasi). Natijada talaba-yoshlarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning uslubiy ta'minotini rivojlanishiga erishilgan;

aksiome'yoriy yondashuv talablari asosida o'quv-pedagogik amaliyotni tashkil etish bilan topshiriqli-amaliy yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samaradorligini muntazam baholab borish asosida aniqlashtirilgan aksiologik yondashuv vositasida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodik ta'minotni amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlariga doir ilmiy ma'lumotlar va mulohazalar pedaogika ta'lim yo'nalishi talabalar uchun mo'ljallangan "Ijtimoiy pedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 277-353 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarning samaradorligiga erishilgan;

kognitiv moslashuvchanlik, kontekstual didaktika va shaxsga yo'naltirilgan

pedagogikaning asosiy tamoyillari bilan “bilim – qadriyat – faoliyat” birligini epistemologik kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan identifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan “Ijtimoiy pedagogika” fani misolida talabalarning ijtimoiy faoliyatga aksiologik munosabatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalariga oid ilmiy mulohazalar “Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish Markazi” tomonidan targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish Markazining 2025-yil 15-maydagi ma‘lumotnomasi). Natijada talabayoshlarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish faoliyatining metodik ta‘minotini takomillashtirishga erishilgan;

reflektiv pedagogika va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim strategiyalari bilan hissiy intellekt, kollaborativ o‘rganish, interfaol treningni rekursiv mexanizm sifatida talqin qilish orqali shakllantirilgan aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashga doir uslubiy ko‘rsatmalar “Obshaya pedagogika (Teoriya pedagogiki)” darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 416168995487272876-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni amaliy-konseptual hamda metodik jihatdan takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 36 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 1 ta monografiya, 2 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola jumladan, 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda hamda 10 ta maqola ilmiy uslubiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, asosiy matn 242 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning mohiyati, mazmuni va tarkibiy

tuzilishi, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik amaliyot, uning mohiyati va tarkibiy tuzilishi, aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning zarurati, pedagogik ta'limda ijtimoiy-pedagogik amaliyot – talabalarda aksiologik munosabat rivojlanishining ustuvor omili sifatida ilmiy tahlili keltirib o'tilgan.

Ma'lumki, har bir oliy ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri – bu talabalarni o'qitishning yangi tizimiga, yangi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy moslashuvini, talabalik maqomini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashdir. Shaxs ta'lim jarayonining faol obyekti va subyekti bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonidagi faolligi uning yo'nalganligi bilan belgilanadi. Pedagogik kuzatish va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirishi, kasbiy-pedagogik qobiliyatlar, ko'nikma, malakalarning shakllantirilishi va ularni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash o'rtasidagi integratsion tuzilma yetarlicha qaror topmagan¹⁵.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyot yaxlit fan sifatida o'rganilmaydi, balki fanlararo integratsiya va jamiyat hayoti bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Bu faoliyatga doir muammolar nazariy va amaliy jihatdan axloqshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya, pedagogika, estetika kabi fanlar tarkibida turli darajada o'rganib kelinadi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ongini oshirishdan iborat. Bu ularga nafaqat nazariy bilim berish, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot ishi doirasida ilmiy tahlillardan kelib chiqib, quyidagi **mualliflik ta'rifi** shakllantirildi: **Ijtimoiy-pedagogik amaliyot** – bo'lajak pedagoglarning nazariy bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash orqali ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishga tayyorlash bo'lib, u nafaqat oliy ta'lim tizimida, balki insonning butun hayoti davomida shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kamoloti bilan uzviy bog'liq bo'lib, aksiologik yondashuv uning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish, pedagogik qadriyatlarni singdirish va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot talabalar uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda turli pedagogik-psixologik sifatlar ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyotning ta'lim muassasalarida turli shakllari mavjud. Ularning har biri turli maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'ygan bo'lib, ular pedagogik faoliyatni kengaytirishga yordam beradi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot shakl jihatdan quyidagicha sinflanadi: 1) tashkiliy; 2) maslahatchi va mentorlik; 3) jamoaviy; 4) ko'ngillilik faoliyati.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy qadriyatlar, jamiyatdagi me'yorlar va tartib-qoidalarni bilishi, ularni amalda qo'llash – pedagogik amaliyot hamda ilmiy-tadqiqot uchun dolzarbligini yo'qotmasligiga

¹⁵ Egamberdiyeva N.M va mualliflar jamoasi. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012. – B. 201-202.


guvoh bo‘linadi. Bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyati maktab bilan chegaralanmaydi, balki davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni nazarda tutadi. Bu holda talabalarda kasbiy qadriyatlar, ijtimoiy me‘yor, tashkilotchilik, muloqot o‘rnatish, huquqiy-me‘yoriy hujjatlar asosida ish yuritish, etiket qoidalarini bilishni talab etadi. Mazkur talablar asosini esa pedagogik aksiologiya tashkil etadi.

A.Kaldibekova, B.Xodjaevlarning fikricha, pedagogik aksiologiya inson va ta‘limni qadriyat deb e‘tirof etgan holda, ta‘limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta‘limga qadriyatli yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasidir¹⁶.

Pedagogik aksiologiya – bu pedagogikaning qadriyatlar (aksiologiya) bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishi bo‘lib, ta‘lim va tarbiya jarayonida insoniy, madaniy va kasbiy qadriyatlarning shakllanishini o‘rganadi. Asosiy pedagogik qadriyatlar quyidagilarga bo‘linadi: umuminsoniy qadriyatlar (insonparvarlik, hurmat, tinchliksevarlik); milliy qadriyatlar (madaniy meros, tarixiy xotira, vatanparvarlik); kasbiy qadriyatlar (halollik, mas‘uliyat, ijodkorlik, doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish).

Tadqiqot ishi doirasida “bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik amaliyotga aksiologik munosabatini rivojlantirish“ tushunchasiga quyidagi mualliflik ta‘rifi shakllantirildi: bu – pedagogik ta‘lim jarayonida shakllanadigan, ijtimoiy-pedagogik amaliyotga nisbatan qadriyatlarga asoslangan ongli, hissiy va irodaviy yondashuv bo‘lib, mazkur munosabat bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyatda insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas‘uliyat kabi umuminsoniy, kasbiy qadriyatlarni anglash darajasi hamda ularga asoslanib faoliyat yuritish jarayonidir.

Ilmiy manbalarda ta‘lim oluvchining ijtimoiylashuvi sohasidagi muammolarga doir qarashlarini quyidagi grafik tarzda tasvirlaydi¹⁷ (**1-rasmga qarang**).



1-rasm. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot – ijtimoiylashuv jarayonlarini tartibga soluvchi uchta pedagogik jarayon o‘rtasidagi bog‘liqlik sifatida.

1 – ta‘lim oluvchining ijtimoiylashuvi sohasidagi muammolar; **a** – ta‘lim oluvchiga ijtimoiy yordam; **b** – ta‘lim oluvchining ijtimoiy tarbiyasi; **v** – ijtimoiy yo‘naltirilgan ta‘lim.

Ilmiy manbalar tahlili “Ijtimoiy-pedagogik amaliyot” va “ijtimoiy-pedagogik faoliyat” o‘zaro bog‘liqligi va farqlari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu bog‘liqliklar va farqlar quyidagi jadvalda qiyosiy tahlil qilingan (**1-jadvalga qarang**).

¹⁶ Kaldibekova A., Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – Toshkent – 2009. - 88 b.

¹⁷ Якиманская И.С. Социальная и социально-педагогическая практика// https://studme.org/375684/pedagogika/sotsialnaya_sotsialno_pedagogicheskaya_praktika

“Ijtimoiy-pedagogik amaliyot” va “ijtimoiy-pedagogik faoliyat” tushunchalarining qiyosiy tahlili

Tavsifi	Ijtimoiy pedagogik amaliyot	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat
Ta’rifi	Ijtimoiy-pedagogik amaliyot – bu ijtimoiy-pedagogik nazariya va metodlarni real hayotda qo‘llash jarayonidir. Bu jarayon orqali ijtimoiy muammolar hal qilinadi va jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar bilan bevosita ishlanadi.	Ijtimoiy-pedagogik faoliyat – bu ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati bo‘lib, u ijtimoiy muhitda tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi ishlarni amalga oshiradi.
Maqsadi	Amaliyotning asosiy maqsadi – nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish, ijtimoiy muammolarni hal etish va tajriba orttirishdir.	Faoliyatning maqsadi – ijtimoiy muhitda barqaror tarbiyaviy tizimni yaratish, ijtimoiy muammolarni oldini olish va ijtimoiy guruhlarini rivojlantirishdir.
Subyekti	Ijtimoiy-pedagogik amaliyotda ishtirok etuvchilar: talabalar, amaliyotchilar, ijtimoiy ishchilar va volontyorlar.	Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda ishtirok etuvchilar: professional ijtimoiy pedagoglar, psixologlar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassislar.
Obyekti	Amaliyotning obyektlari: ijtimoiy xavf ostidagi bolalar, nogironlar, qariyalar, muhojirlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar.	Faoliyatning obyektlari: butun ijtimoiy guruhlar, oilalar, jamoalar va jamiyatning turli qatlamlari.
Metodlar	Amaliyotda qo‘llaniladigan metodlar: kuzatuv, suhbat, intervyu, eksperiment, treninglar va seminarlar.	Faoliyatda qo‘llaniladigan metodlar: diagnostika, profilaktika, rehabilitatsiya, konsalting va maslahat berish.
Natijalar	Amaliyot natijasida: talabalar amaliy ko‘nikmalarni egallaydi, ijtimoiy muammolarni hal qilish bo‘yicha tajriba orttiradi.	Faoliyat natijasida: ijtimoiy muammolar kamayadi, ijtimoiy guruhlar rivojlanadi, ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi.
Davomiy- ligi	Amaliyot odatda qisqa muddatli bo‘lib, semestr yoki o‘quv yili davomida amalga oshiriladi.	Faoliyat doimiy va uzluksiz bo‘lib, professional hayot davomida amalga oshiriladi.
Huquqiy asoslari	Amaliyot ta’lim muassasalari tomonidan belgilangan dasturlar asosida amalga oshiriladi.	Faoliyat davlat qonunlari, me’yoriy hujjatlar va professional standartlar asosida amalga oshiriladi.
Nazorat va baholash	Amaliyot natijalari o‘qituvchilar va amaliyot rahbarlari tomonidan baholanadi.	Faoliyat natijalari davlat organlari, jamoat tashkilotlari va professional assotsiatsiyalar tomonidan nazorat qilinadi.
Innovatsiy alar	Amaliyotda yangi metodlar va yondashuvlar sinovdan o‘tkaziladi.	Faoliyatda innovatsion texnologiyalar va metodlar joriy etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlanib, ijtimoiy-pedagogik amaliyotda ijtimoiy faollikning ahamiyati, pedagogika oliy ta’lim muassasasida talabalarining ko‘ngillilik (volontyorlik) faoliyatini tashkil etishni ijtimoiy-pedagogik jihatlari hamda volontyorlik faoliyati ijtimoiy-pedagogik amaliyotning innovatsion shakli sifatida tadqiq etildi.

Ijtimoiy-pedagogik amaliyotda ijtimoiy faollik talaba shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hamda ijtimoiy-pedagogik amaliyotda va ijtimoiy-pedagogik faoliyatda muhim kategorial tushuncha hisoblanadi. **Ijtimoiy faollik** –

ijtimoiy subyektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi; subyektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z-o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishning asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy faollik ijtimoiy ongning shakllanishiga oid fundamental tushuncha bo'lib, fuqarolik jamiyatining muhim me'yorlaridan biridir. Ijtimoiy faollik al'truizm, beg'arazlik va mas'uliyatlilik tushunchalari bilan hamohang tarzda rivojlanadi¹⁸. Ijtimoiy faollikning xususiyatlarini tizimlashtirgan holda quyidagi jadvalda keltirildi (**2-jadvalga qarang**):

2-jadval

Ijtimoiy faollikning ko'rsatkichlari va xususiyatlari.

Ko'rsatkichlar	Ijtimoiy faollikning xususiyatlari
Maqsad	Shaxsning ijtimoiy o'ziga xosligi va jamiyatga moslashuvi
Asosiy tamoyillar	Faoliyatga yo'naltirilganlik, ijtimoiy aloqalar
Vositalar	Muloqot, jamoat ishlari, ijtimoiy muammolarni hal qilish
Natija	Shaxsning jamiyatda faol ishtirok etishi, o'z qobiliyatlarini namoyish etishi

Ijtimoiy-pedagogik amaliyotning makro, mezo va mikro bosqichlari bo'lib, ular quyidagicha tavsif etiladi:

Makro bosqich (jamiyat miqyosida). Bu bosqich umumdavlat, mintaqaviy yoki global miqyosdagi ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni qamrab oladi hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosati, umumxalq ijtimoiy loyihalari, ta'lim va ijtimoiy himoya tizimlarini qamrab oladi.

Mezo bosqich (hududiy hokimiyat, tashkilot miqyosida). Bu bosqich ta'lim muassasalari, mahalla, jamoalar darajasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Bunga ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar, mahalliy yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan tadbirlar, huquq-targ'ibot ishlari misol bo'la oladi.

Mikro bosqich (individual darajada). Bu bosqich alohida shaxs yoki kichik guruhlar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Bu bosqich o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi pedagogik faoliyatga asoslanadi. Jumladan, o'zlashtirishi sust, tarbiyasi og'ir, muammoli oilalar bilan ishlash, ota-onalar bilan ishlash, maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan individual ishlash, psixologik yordam ko'rsatish mikrobosqichda amalga oshiriladigan ijtimoiy-pedagogik amaliyotga misol bo'la oladi.

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashning eng namunaviy amaliy mexanizmi volontyorlik hisoblanadi. Volontyorlik (faoliyati) – bu biror inson o'z xohishi bilan vaqti va mehnatini qandaydir jamoat ishiga, ko'p hollarda hech moddiy foydasiz yordam

¹⁸ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии / Мастера психологии Издательство. – Питер, 2002. – 720 с.

berishi. Ya'ni volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanish shaxsning ko'ngilli ravishda o'z vaqtini va faoliyatini qandaydir ijtimoiy ishlarni amalga oshirishga sarflaydi. "Volontyorlar" va "ko'ngillilar" tushunchalari ham ayni bir tushuncha hisoblanadi. Tadqiqot ishi doirasida "volontyor" atamasidan keng foydalanildi. Bu tushuncha xalqaro atama sifatida amaliyotda keng qo'llaniladi.

Volontyorlik ijtimoiy-pedagogik faoliyat sifatida insonning ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Volontyor volontyorlik faoliyatini turli shaklda, masalan: tabiiy, ekologik, texnogen va boshqa ofatlar, ijtimoiy nizolar, baxtsiz hodisalar natijasida jabrlanganlarga, jinoyat qurbonlariga, qochqinlar va ko'chirilganlarga, shuningdek boshqalarning yordamiga muhtoj odamlarning toifalari va guruhlariga, shu jumladan sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy himoya muassasalarida yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlashda; aholini tabiiy, ekologik, texnogen va boshqa ofatlardan ogohlantirish, ularning oqibatlarini bartaraf etishda; boshqa ixtiyoriy faoliyatda (volontyorlik faoliyatida) ishtirok etishi kabilarda namoyon etadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning volontyorlik faoliyatini tashkil etishni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi"** deb nomlanib, "Ijtimoiy pedagogika" fanining ijtimoiy-pedagogik amaliyot nuqtai nazaridan tahlili, ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashga doir metodik ta'minot, aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash modeli keltirib o'tilgan.

Ma'lumki, bo'lajak pedagoglardan nafaqat milliy, balki xalqaro standartlarga javob beradigan mutaxassis bo'lishi kutiladi. So'ngi yillarda ta'limni isloh etishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor masalasi, albatta malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. "Ijtimoiy pedagogika" fani mazkur talablarni bajarish uchun asosiy nazariy, ilmiy, amaliy tajribalarni egallash imkonini beradi. Ushbu fan 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi uchun 3-4-semestrlarda majburiy fan sifatida o'qitiladi. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida bugungi kundagi real ijtimoiy vazifalarni bajarishga, muammolarga yechim topishga, ijtimoiy-pedagogik faoliyatning dolzarb masalalarini tadqiq etishga ko'maklashadi.

"Ijtimoiy pedagogika" fani doirasida talabalar kasbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-pedagogik jihatlari bilan birga metodologik yondashuvlarini va ularning tatbiq etishga doir amaliy bilimlarni o'rganadi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot turli metodologik yondashuvlarga asoslanadi va ular quyidagilar: tarbiyaviy, interfaol metodlar, psixologik-pedagogik yondashuv, ijtimoiy xizmat metodlari, innovatsion texnologiyalar. Zamonaviy ta'lim jarayoni talabalarning faqat nazariy bilim emas, balki real ijtimoiy-pedagogik muhitda faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, "Ijtimoiy pedagogika" fani doirasidagi har bir mavzu bo'yicha bevosita dars jarayoni, mustaqil ta'lim va 4+2 amaliyot bir butunlikda tashkil etilishi zarur. Tajriba-tadqiqot ishi doirasida mazkur faoliyatlarga mos ravishda adaptiv metodlar qo'llanildi. Xususan:

I. Dars jarayonida. “Ijtimoiy pedagogika” fanining har bir mavzusi o‘ziga xos pedagogik yondashuv va metodlarni talab qiladi. Dars ishlanmasini tayyorlashda “7E usuli”, darslarni rejalashtirishning GTD texnologiyasi adaptiv qo‘llanilgan holda o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga mos, ehtiyojiga yo‘naltirilgan va muammoga asoslangan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali talabalar muammoli vaziyatda qaror qabul qilish, ijtimoiy pozitsiya bildirish, shaxslararo munosabatni tahlil qilish kabi kompetensiyalarni egallaydilar.


II. Mustaqil ta’lim (ish)da. Fanning tabiati talabalarni mustaqil izlanishga undaydi. Tajriba-tadqiqot ishlari davomida har bir mavzu uchun moslashtirilgan mustaqil ishlar – “Yozma esse”, “Tahliliy esse”, “Kim haq?” ijtimoiy o‘yini, tahliliy hisobot, “Fishbowl Discussion”, Assotsiativ metodlar amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur yondashuvlar talabani ijtimoiy muammolarni chuqur tahlil qilish, o‘z nuqtai nazarini asoslash va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

III. 4+2 amaliyoti. Pedagogik amaliyotning “4+2” shakli – 4 kun akademik ta’lim va 2 kun pedagogik amaliyotni uyg‘unlashtirgan tizimidir. Mazkur amaliyotda quyidagi adaptiv metodlar samarali qo‘llanildi: “Ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish”, “Boshqariladigan munozara”, “Vaziyatli kollaj”.

Quyida keltirib o‘tilgan metodlarning ayrimlarini tavsifi keltirib o‘tiladi:

I. “Ijtimoiy pedagogika” fanida keltirilgan mavzularni o‘qitishda **assotsiativ metod** mavzular yoki tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tizimli aniqlash va ularni turli kontekstlarda qo‘llashga qaratilgan bo‘ladi. Mazkur metod asosan talabalarning ijodiy tafakkurni rivojlantirish, yangi bilimlarni mustahkamlash va ularga shaxsiy yondashuvni shakllantirishda samarali natija beradi.

II. Tadqiqot ishida 7E usulidan foydalanildi. Pedagogik oliy ta’limda talabalarni faol ishtirok ettirish, mustaqil fikrlash va chuqur tushunishga erishish uchun darsni bosqichma-bosqich metodologiya asosida rejalashtirish zarur. Bu jarayonda 7E (Elicit, Engage, Explore, Explain, Elaborate, Extend, Evaluate) usuli samarali pedagogik strategiya sifatida tan olinadi. **(2-rasmga qarang).**



2-rasm. “Ijtimoiy pedagogika” fanidan darsni rejalashtirishning 7E usuli.

III. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarini ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashda “Ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish” metodi talabalarda kasbiy identitetlikni rivojlantirishga, ularda muhim amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. “Ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish”

metodi orqali talabalar o'qituvchi, o'quvchi, direktor yoki ota-ona kabi turli rollar bajarilib, real hayotga yaqin pedagogik, ijtimoiy vaziyatlarni sinab ko'riladi.

IV. Yozma esse – talabalarni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini aniq va ravon ifodalashga, mantiqiy tahlil qilishga va ilmiy yondashishga o'rgatadigan topshiriq turi. Esse yozish jarayonida talabalar o'zlarining ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari, mustaqil tadqiqot olib borishlari va o'z fikrlarini asosli tarzda ifodalashlari lozim. Pedagogik oliy ta'limda esse ko'pincha talabalar tomonidan ma'lum bir mavzu bo'yicha ilmiy yoki tahliliy fikr yuritish, muammolarni yoritish va yechim taklif etish uchun qo'llaniladi.

V. Tahliliy hisobot – talabalar tomonidan o'z o'rganish jarayonida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish maqsadida tayyorlanadigan hujjat. Ushbu topshiriq pedagogik oliy ta'limda talabalar o'rgangan mavzularini chuqurroq tushunishlari, ularni real vaziyatlarga tatbiq etishlari va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishlari uchun muhim hisoblanadi.

VI. “Fishbowl Discussion” metodi talabalarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, munozara ishtirokchilari markazda o'tirib, qolganlar esa ularga kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Bu metod ijtimoiy-pedagogik mavzular bo'yicha talabalarning tahliliy fikrlash va munozara qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchi muhokama qilinadigan mavzuni tanlaydi va savollarni tayyorlaydi, talabalarni ikkita guruhga ajratadi: muhokamachilar va kuzatuvchilar. Shuningdek, o'qituvchi munozara jarayonini boshqaradi va yakuniy baholashni amalga oshiradi. Talabalar: muhokamachilar sifatida o'z fikrlarini ifoda etadi; kuzatuvchilar sifatida baholash mezonlariga asosan fikr bildiradi; munozara yakunida o'z xulosalarini taqdim etadi.

VII. Ijtimoiy-pedagogik vaziyatga doir tahlil metodi talabalarni ijtimoiy-pedagogik muammolarni chuqur o'rganishga, ular bo'yicha qarorlar qabul qilishga va muammolarni hal qilishda amaliy tajriba hosil qilishga yo'naltiradi. Bu metodda talabalar real hayotda uchraydigan yoki simulyatsiya qilingan ijtimoiy muammolarni tahlil qilishlari va ularning yechimini izlashlari talab etiladi.

VIII. Boshqariladigan munozara metodi orqali talabalar ijtimoiy-pedagogik faoliyatda ko'p uchraydigan dolzarb mavzularda fikr bildirishga, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga va turli pozitsiyalarni tahlil qilishga o'rganadi. Bu metod talabalarni mavzuga qiziqtiradi va ularning mantiqiy fikrlash, tanqidiy baholash hamda notiqlik ko'nikmalarini shakllantiradi. “Ijtimoiy tarmoq bolalar tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?” mavzusida munozara tashkil qilish mumkin. Talabalar ikki guruhga bo'linib, biri ijtimoiy tarmoqlarning foydasi haqida, ikkinchisi esa zararli jihatlari haqida bahs yuritadi.

IX. Tadqiqot ishi doirasida GTD texnologiyasi adaptiv tarzda qo'llanildi. “Ijtimoiy pedagogika” fanining “Ta'lim-tarbiya jarayonidagi ijtimoiy-pedagogik dolzarb muammolar” mavzusi mazkur texnologiya asosida tahlil qilindi. GTD (*Getting Things Done*) tizimi talaba-yoshlarning axloqiy barkamolligini ta'minlashda samarali vosita bo'lib, shaxs faoliyatini rejalashtirish, undagi ustuvorlikni belgilash, vazifalar taqsimotini nazorat qilish, o'z vaqtida yakunlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyaning pedagogik jarayonga integratsiya qilinishi orqali nafaqat ta'lim oluvchilarning o'qishdagi

yutuqlarini, balki ularning axloqiy pozitsiyasini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin.

Tadqiqot ishi doirasida “Ijtimoiy pedagogika” fanidagi jami 30 ta mavzuga talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash, ularda aksiologik munosabatni rivojlantirish, metod va texnologiyalar nuqtayi nazaridan tizimli tahlil keltirib o‘tiladi va mazkur tahlildan 2 ta mavzu namuna tarzida quyidagi keltirib o‘tilgan (**3-jadvalga qarang**):

3-jadval


“Ijtimoiy pedagogika” fanida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash, ularda aksiologik munosabatni rivojlantirish, metod va texnologiyalar nuqtai nazaridan tizimli tahlil

Fan dasturiga muvofiq mavzular	Talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash	Aksiologik munosabatlarni rivojlantirish	Tavsiya etilgan metodlar va texnologiyalar
1. Ijtimoiy pedagogika fani jamiyat rivojining asosi sifatida	Talabalarda ijtimoiy pedagogikaning mohiyatini anglash, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida tushuncha shakllantiriladi. Ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadi.	Talabalarda ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, tenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi asosiy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirish.	Ma’ruza, amaliy darslar, keystadi, muzokara, loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi.
2. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning paydo bo‘lishi madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari	Tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari asosida amaliy darslar tashkil etiladi. Talabalar tarixiy jarayonlar va ularning ijtimoiy tarbiyadagi rolini tahlil qiladilar.	O‘zbek xalqi tarixiy merosiga hurmat, milliy qadriyatlarga sodiqlikni oshirishga xizmat qiladi.	Tarixiy-tahliliy metod, loyiha metodlari, muammoli o‘qitish.

Izlanishlar natijasida “Aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash” modeli ishlab chiqildi. Mazkur model “Maqsad”, “Ilmiy-nazariy”, “Tashkiliy-metodik”, “Baholash-diagnostika” va “Natija” kabi bloklarga bo‘lingan. Shakllantirilgan modelning bloklari va ulardagi komponentlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu model talabalarning kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy faoliyatga layoqatlilik, qadriyatga sodiqlik, innovatsion fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil harakat qilish va hamkorlikda ishlash kabi muhim natijalarga yo‘naltirilgan. Model tarkibida tamoyillar, baholash mezonlari, texnologiyalar va pedagogik shart-sharoitlar o‘zaro integratsiyalangan holda taqdim etilgan.

Modelning o‘ziga xosligi uning **grafik jihatdan** tuzilishi hisoblanib, uning mazmuni hamda kompozitsion yaxlitligini ta’minlovchi muhim omil sanaladi. Unda aylana, kvadrat va romb shakllari ramziy-belgili grafik vositalar sifatida qo‘llanilgan. Har bir geometrik shakl ma’lum bir pedagogik blok yoki funksiyani ifodalaydi: **aylana** – uzluksizlik va mukammallikni, **kvadrat** – barqarorlik va tizimlilikni, **romb** esa harakat, dinamik rivojlanish va sifat belgilarini anglatadi. Ushbu shakllar orqali model vizual va semantik jihatdan tushunarli, murakkab bo‘lmagan, lekin mazmunan boy ko‘rinishda ifodalanadi.

Modelning afzalligi esa uning ko‘rgazmaliligida namoyon bo‘ladi. Talabalar, o‘qituvchilar yoki tadqiqotchilar modelning tarkibiy qismlarini bir qarashda anglay oladi. Bu esa ta’lim jarayonida uni qo‘llashni osonlashtiradi, metodik material sifatida undan samarali foydalanish imkonini beradi. Ko‘rgazmalilik orqali model nafaqat informatsion, balki estetik qiymat ham kasb etadi. Grafik tuzilish pedagogik g‘oyalarni tizimli va tadrijiy tarzda ifodalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli model amaliyotda keng qo‘llanishga mos va didaktik ahamiyatga egadir. (**3-rasmga qarang**).



MAQSAD BLOGI	
Ijtimoiy buyurtma:	■ Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash
Pedagogik talab:	● Ijtimoiy faol, ma'naviy yuksak, kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qo'yilayotgan talab mavjudligi
ILMIY-NAZARIY BLOK	
Asosiy tushunchalar:	◆ Aksiologiya, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy pedagogika, professional kompetensiya, refleksiya, ijtimoiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy rivojlanish, kasbiy identifikatsiya, pedagogik jarayon
Pedagogik zaruriyat:	● Bugungi kunda: ta'limni ijtimoiy jarayonlar bilan uyg'unligini ta'minlash; talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini ilmiy-tizimli tashkil etish; talabalarda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirish; shaxsiy va kasbiy o'sish, ijtimoiy-pedagogik savodxonlik, real ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga zaruriyat borligi
Tamoyillar:	■ Qadriyatga yo'nalganlik, individuallik, ijtimoiy moslashuvchanlik, integrativlik, tizimlilik, motivatsion qo'llab-quvvatlash, refleksivlik, kasbiy yo'naltirilganlik, hamkorlik, transformativ
TASHKILY-METODIK BLOK	
Yondashuvlar:	● Aksiologik, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, integrativ, refleksiv, kreativ, kommunikativ yondashuv
Pedagogik shart-sharoit:	■ innovatsion muhit, ijtimoiy-pedagogik muassasalar, amaliyot bazalari, ilmiy-uslubiy ta'minot, mentorlik tizimi
Metodika:	◆ 7E usuli; "Assotsiativ" metod; "Ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish" metodi; "Kim haq?" ijtimoiy o'yini; Yozma esse; Tahliliy hisobot; "Fishbowl Discussion" (Akvarium usulidagi munozara); "Vaziyatli kollaj"; "Boshqariladigan munozara" metodi; dars rejalashtirishning GTD adaptiv texnologiyasi.
Xorijiy tajriba:	● Qadriyatlarga asoslangan refleksiv o'qitish ("Reflective Teacher Education Model"); Singapur: Mentorlik asosida amaliy mashg'ulotlar ("Structured Mentoring Programme"); Mas'uliyatga asoslangan tarbiya ("Moral and Social Responsibility Education Program")
BAHOLASH DIAGNOSTIKA BLOGI	
Ko'rsatkich:	■ Ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorgarlikning kasbiy, ijtimoiy, aksiologik, refleksiv ko'rsatkichlari
Mezon:	◆ Kasbiy: ijtimoiy-pedagogik bilimlarning egallanganligi; ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirish qobiliyati; amaliy vaziyatlarda pedagogik bilimlarni qo'llay olish. Ijtimoiy: guruhda samarali hamkorlik qilish qobiliyati; muloqotda faol ishtirok etish; konfliktlarni yechish va ijtimoiy adaptatsiya qobiliyati; ijtimoiy faol fuqaro pozitsiyasini namoyon qila olishi. Aksiologik: kasbga nisbatan munosabatning ijobiyligi; pedagogik faoliyatda axloqiy me'yorlarga rioya qilish; ijtimoiy va pedagogik mas'uliyatni his qilish. Refleksiv: o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati; shaxsiy va kasbiy faoliyati uchun zaruriy qadriyatlarni tarkib topishini baholay olishi
Daraja:	■ Yuqori, o'rta, past
NATIJA BLOGI	
Kutilayotgan natija:	◆ Ijtimoiy faoliyatga layoqatli, ijtimoiy-kasbiy qadriyatlar shakllangan, innovatsion fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil harakat, hamkorlikda ishlash, kommunikativ kompetensiya tarkib topgan talaba

3-rasm. Aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash modeli.

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi bobi “**Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi samaradorligi**” deb nomlanib, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi hamda tajriba-sinov ishlari natijalari va statistik tahlili keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2022-2025-yillar davomida Andijon davlat pedagogika institutining 134 nafar, Navoiy davlat pedagogika institutining 129 nafar va Namangan davlat pedagogika institutining 106 nafar talabalari ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarida jami 369 nafar talabalar ishtirok etdi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodik jihatdan muammoli ekanligini ko‘rsatdi. Talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodlarini takomillashtirish borasidagi tajriba-sinov ishlari maxsus dastur asosida tashkil etildi.

Dissertatsiya doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasini aniqlash tadqiqotning muhim va xulosaviy qismini tashkil qiladi. Dissertatsiya ishini statistik tahlil qilish jarayonida u yoki bu gipotezani tekshirish uchun kuzatishlar yoki maxsus tajribalar o‘tkazish yo‘li bilan aniq ma’lumotlar va shu farazga muvofiq nazariy jihatdan kutilayotgan ma’lumotlar bilan taqqoslandi. Aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashga doir tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili bugungi kunda juda ko‘p ilmiy tadqiqotlarda o‘rta qiymatni Student mezonini va taqsimot qonuni haqidagi gipotezani tekshirish uchun eng ko‘p ishlatiladigan mezon – Pirson mezonini χ^2 (Xi-kvadrat) mezonini asosida amalga oshirildi (**4-jadvalga qarang**):

4-jadval

Oliy ta’lim muassasalaridagi tajriba obyektlari va respondent-talabalar haqida ma’lumot

№	Oliy ta’lim muassasasi	Ta’lim yo‘nalishi	Talabalar soni				Jami
			tajriba	tajriba	nazorat	nazorat	
			2-bosqich	3-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	
1	ADPI	Pedagogika	33	36	32	33	134
2	NavDPI	Pedagogika	34	32	31	32	129
3	NamDPI	Pedagogika	27	25	28	26	106
Jami:			94	92	89	97	369

Tajriba sinov ishlari 3 bosqichda amalga oshirildi. Shakllantiruvchi va ta’kidlovchi tajribalar davrida talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha rivojlanganlik darajasi yuqorida ko‘rsatilgan mezonlar bo‘yicha aniqlandi. Ta’kidlovchi tajriba-sinov bosqichida tajriba guruhida ham, nazorat guruhida ham pedagogik ta’lim yo‘nalishidagi talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha samaradorlik darajasining rivojlanganligi aniqlandi (**5-jadvalga qarang**):

**O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashgan tajribadan avvalgi (TA)
va tajribadan keyingi (TK) natijalari**

Mezonlar	Tajriba guruhi (187 nafar respondent)						Nazorat guruhi (182 nafar respondent)					
	Yuqori		o‘rta		past		yuqori		o‘rta		past	
	t/a	t/k	t/a	t/k	t/a	t/k	t/a	t/k	t/a	t/k	t/a	t/k
1	Kasbiy: ijtimoiy-pedagogik bilimlarning egallanganligi; ijtimoiy pedagogik vazifalarni amalga oshirish qobiliyati; amaliy vaziyatlarda pedagogik bilimlarni qo‘llay olish.											
41	79	68	78	78	30	34	49	69	63	79	70	
2	Ijtimoiy: guruhda samarali hamkorlik qilish qobiliyati; muloqotda faol ishtirok etish; konfliktlarni yechish va ijtimoiy adaptatsiya qobiliyati; ijtimoiy faol fuqaro pozitsiyasini namoyon qila olishi.											
38	81	71	76	77	31	37	46	66	65	79	71	
3	Aksiologik: kasbga nisbatan munosabatning ijobiyliigi; pedagogik faoliyatda axloqiy me‘yorlarga rioya qilish; ijtimoiy va pedagogik mas’uliyatni his qilish.											
40	78	67	75	81	33	33	48	65	62	84	72	
4	Reflektiv: o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati; shaxsiy va kasbiy faoliyati uchun zaruriy qadriyatlarni tarkib topishini baholay olishi											
37	82	70	79	80	26	36	45	68	66	78	71	
Umumiy o‘rtacha												
39	80	69	77	79	30	35	47	67	64	80	71	


Izoh: T/a. – tajriba avvalida, T/s. – tajriba so‘ngida.

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan pedagogik ta‘lim yo‘nalishidagi talabalarning ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorgarlik darajasi bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Quyida mazkur o‘zgarishlarning statistik tahlili keltirilgan.

Ta‘kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun **Styudent va Pirson** metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirilgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta‘kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun **Styudent va Pirson** metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida

belgilanib, baho ko'rsatkichlari bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi. Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi: (4-rasmga qarang).



4-rasm. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha tajriba so'ngidagi natijalar diagrammasi.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun o'rta qiymat, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Studentning tanlanma mezonini, Student mezonini asosida erkinlik darajasi, Pearsonning muvofiqlik mezonini va ishonchli chetlanishlari topildi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining statistik ko'rsatkichlari.

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,27	1,87	0,5171	0,6331	2,32	3,13	5,13	367	26,35	0,10	0,11

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, $\bar{X}=2,27$; $\bar{Y}=1,87$; $\Delta_x = 0,10$; $\Delta_y = 0,11$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yoc} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,27 - 0,10}{1,87 + 0,11} = \frac{2,17}{1,98} \approx 1,10 > 1;$$

Bilish darajasini ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{oob} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,27 - 0,10) - (1,87 - 0,11) = 2,17 - 1,76 = 0,41 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligi bilan ko'rish mumkin. Yuqoridagi statistik tahlillardan ma'lum bo'ldiki, aksiologik

yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi bo'yicha tajriba guruhlaridagi o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishdan(13,4 % ga) yuqori ekan.

Demak, olib borilgan tajriba-sinov ishlari aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash metodikasi bo'yicha ta'lim samaradorligi oshishini tasdiqladi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalari tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Aksiologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida markaziy o'rinni egallab, ushbu yondashuv orqali talabalar o'zlarining kasbiy yo'lini nafaqat bilimlar bilan, balki ma'naviy qadriyatlar orqali aniqlashtirishni o'rganadi. Aksiologik dunyoqarash shaxsning kasbiy faoliyatini anglash, unga ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashish, ijtimoiy adolat, hamkorlik, bag'rikenglik kabi qadriyatlar asosida faoliyat yuritishga yo'naltiradi. Aksiologik yondashuv talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi, uni jamiyatning faol va ongli a'zosi bo'lishiga yo'naltirishni maqsad qiladi. Demak, talabalarda aksiologik yondashuv asosida shakllangan kasbiy ong va qadriyatlar tizimi pedagogik faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi.

2. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligining ajralmas qismi sifatida, nazariy bilimlarning amaliyotda sinovdan o'tkazish bilan birga talabalarning kasbiy va ijtimoiy identitetini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Talaba real ijtimoiy vaziyatlarda faoliyat olib borar ekan, pedagogik muhitdagi rolini angelaydi, mas'uliyat hissi kuchayadi, ijtimoiy ong va refleksiv yondashuvi rivojlanadi. Ijtimoiy-pedagogik amaliyot, shuningdek, zamonaviy metodlar, kommunikatsion vositalar va ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini egallash uchun muhim imkoniyat yaratadi. U nafaqat ta'lim tizimida, balki darsdan tashqari ijtimoiy muhitda ham faoliyat yuritish malakasini shakllantiradi.

3. Talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatga aksiologik munosabatni rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab talabalar shaxsiy identitetlarini shakllantirib, o'z qadriyatlari va qiziqishlarini anglab yetadilar. Keyingi bosqichda pedagogik faoliyatning mohiyati, unga xos kasbiy qadriyatlar va mas'uliyatlarini tushunib, kasbiy ong rivojlanadi. Uchinchi bosqichda talabalar real amaliy vaziyatlarda o'z kasbiy rolini egallab, pedagogik vazifalarni bajarish orqali o'zlarining faol munosabatlarini shakllantiradilar. Nihoyat, kasbiy identitetni mustahkamlash bosqichida talabalar yuqori motivatsiya va fidoiylik bilan pedagogik faoliyatning murakkab vaziyatlariga tayyor bo'ladilar. Shu orqali aksiologik munosabat bosqichma-bosqich shakllanib, talabalarning pedagogik faoliyati mazmunli va samarali bo'ladi.

4. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish ularning bo'lajak kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Bu jarayon talabalar pedagogik kompetentligini rivojlantirish bilan

birga, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri anglashlariga yordam beradi. Shu sababli ijtimoiy faollikning shakllantirilishi fanlarning mazmuniga tizimli ravishda integratsiya qilinishi muhimdir. Talabalarni turli ijtimoiy loyihalar, tadbirlar, ko‘ngillilar faoliyatida ishtirok ettirish orqali ular nafaqat kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, balki shaxsiy sifatlarini mustahkamlaydilar. Bunday integrativ yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarligi va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlab, ularning pedagogik faoliyatda samarali, tashabbuskor va jamiyat oldidagi mas‘uliyatini chuqur anglaydigan mutaxassis sifatida shakllanishiga imkon beradi.

5. Volontyorlik pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy jihatdan muntazam ravishda tadqiq qilinuvchi dinamik faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyat orqali talabalar pedagogik faoliyat uchun muhim hisoblangan, jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmaslik, boshqalarga beg‘araz yordam bera oladigan, ijtimoiy faolligi yuqori shaxs sifatlarini amaliy jihatdan shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Volontyorlik faoliyati orqali talabalarda empatiya, hamdardlik, insonparvarlik, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar amaliy faoliyat jarayoni orqali shakllanadi va rivojlanadi. Shu bilan birga, bu faoliyat orqali talabalarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlanadi, jamiyat oldidagi burchini his etadi, pedagogik mas‘uliyat kuchayadi hamda kelajakdagi kasbiy pozitsiyasini belgilovchi qadriyatlar shakllanadi.

6. Talabalarning ijtimoiy-pedagogik tayyorgarligida muloqot madaniyati va empatiyaning ahamiyati ularning bo‘lajak kasbiy faoliyati doirasida ta‘lim oluvchilar bilan samarali muloqot o‘rnata olishi, ularning ichki olamini anglaydigan, emotsional jihatdan barqaror shaxs bo‘lishini ta‘minlash uchun muhim hisoblanadi. Muloqot madaniyati bu yerda faqat estetik ifoda yoki til madaniyati bilan cheklanmaydi, balki faollik, hurmat, e‘tibor, konstruktiv tanqid, tinglash madaniyati va shaxslararo munosabatlarda samimiyligni o‘z ichiga oladi. Talabalarning volontyorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ularda aynan shunday ko‘nikmalarni amaliy tarzda rivojlanishini ta‘minlaydi. Empatiya esa muloqotning emotsional qismidir – boshqalar og‘rig‘ini his qilish, tushunish va shunga mos munosabat bildirish. Empatiyasi rivojlangan talabalar ko‘proq ijtimoiy muammolarni ilg‘ashga moyil, boshqalarga yordam berishga tayyor va ijtimoiy ong darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar sifatida shakllanadi.

7. Aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash aksiologik, kompetensiyaviy, faoliyatga va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar, muammoli ta‘lim, treninglar, rolli o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Bu orqali talabalar ijtimoiy faoliyatda ishtirok etib, mavjud muammolarni anglash, ularni hal etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Ijtimoiy faol talaba real vaziyatlarda pedagogik mas‘uliyat, empatiya, hamkorlik kabi qadriyatlarni namoyon etadi. Ijtimoiy loyihalar, amaliy mashg‘ulotlar, mentorlik, diagnostik tahlillar kabi mexanizmlar orqali talabalar nafaqat kasbiy bilim, balki qadriyatga asoslangan kasbiy ong va mas‘uliyatni shakllantirib, pedagogik faoliyatga puxta tayyor bo‘ladilar.

8. Tadqiqot doirasida “Ijtimoiy pedagogika” fani mazmuniga aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash

mazmunini korrelyatsiya qilishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot ishi doirasida fanni o'qitishda talabalarda aksiologik tushunchalar, ijtimoiy-pedagogik amaliyotga doir quyidagi mualliflik texnologiyalari shakllantirildi: "7E usuli", "Assotsiativ" metod, "Ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish" metodi, "Kim haq?" ijtimoiy o'yini, "Yozma esse", "Tahliliy esse", "Fishbowl Discussion", "Vaziyatli kollaj", "Boshqariladigan munozara metodi", darslarni rejalashtirishning GTD texnologiyasi. Mazkur adaptiv metodlar va texnologiyalar tajriba-sinov obyektlariga tatbiq etildi.

9. Tadqiqot ishi doirasida takomillashtirilgan "Aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlash modeli"ning ahamiyati talabalarning kasbiy-pedagogik shakllanishini qadriyatlar asosida tizimli tarzda amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Model talabalarning kasbiy kompetensiyalarini, innovatsion fikrlash va reflektiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali, ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorligini ta'minlaydi. Shuningdek, modeldagi pedagogik tamoyillar, texnologiyalar, diagnostika usullari talabalarning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Uning grafik tuzilishi nafaqat pedagogik jarayonning ko'rgazmaliligini ta'minlaydi, balki murakkab pedagogik vazifalarni oson anglash imkonini ham beradi. Shu sababli, aksiologik yondashuv asosida yaratilgan ushbu model pedagogik ta'lim sifatini oshirish, talabalarning ijtimoiy mas'uliyat va qadriyatlarni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

10. Tajriba-sinov ishlari yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, talaba shaxsiga insonparvar yondashuv, ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo'lishi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tizimli tashkil etish kabi umummilliy va xususiy-metodik tamoyillar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini, tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori (13,4% ga) ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda shaxsiy va kasbiy qadriyatlar integratsiyasiga asoslangan fakultativ kurslar tashkil etish maqsadga muvofiq;

ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliyotda aks ettiruvchi yondashuvlar, metodik ta'minot hududlarning joylashuvi, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq;

pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning volontyorlik faoliyatini qo'shimcha amaliyot sifatida tan olinishi uchun o'quv-me'yoriy talablar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

o'quv jarayonida talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, empatiya va qadriyatga asoslangan muloqot madaniyati rivojlanishini baholash va bu borada "o'qituvchi-talaba muloqoti"ni muntazam muloqot sifatida tashkil etib borish lozim;

ijtimoiy pedagogika fanini pedagogika oliy ta'lim muassasalarining barcha

ta'lim yo'nalishlari o'quv rejariga fan sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq;
bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik amaliyotga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, raqamli platformalar va simulyatsiya asosidagi treninglardan kompleks foydalanish zarur bo'ladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК (DSc) НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ХУШНАЗАРОВА МАЪМУРА НАДИРОВНА

**МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К СОЦИАЛЬНО
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА
(На примере предмета социальная педагогика)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (педагогика)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за B2023.3.DSc/Ped611.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.adpi.uz) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Сирожидинов Бехзод Арабджанович**
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Азимова Зиёда Эргашевна**
доктор педагогических наук, профессор

Хаджаев Бегзод Худойбердиевич
доктор педагогических наук, профессор

Тайирова Мадина Бахтиёрвна
доктор педагогических наук, доцент

Ведущая организация: **Гулистанский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 по присуждению ученых степеней при Андижанском государственном педагогическом институте (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Дустлик, дом-4, Тахтакуприк МФЙ. Тел.: (374) 224-01-70, email: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz. Андижанский государственный педагогический институт, _____)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного педагогического института (зарегистрировано за № _____). (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Дустлик, дом-4, Тахтакуприк МФЙ. Тел.: (374)224-01-70)

Автореферат диссертации разослан «___» _____ года.
(№__ протокола реестра “___” _____ 2024 года)

Б.М.Расулов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.и.н., профессор

Д.Т.Саматов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.п.н., доцент

З.Э.Азимова
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Среди важнейших достижений развитых стран мира на пути социального развития наблюдается приоритетное значение укрепления своих культурных, духовных и нравственных ценностей. Сегодня в мире усиливаются процессы глобализации, возрастают новые угрозы и опасности миру и стабильности, сложная и опасная ситуация требует критической оценки проделанной работы в сфере образования и совершенствования его деятельности на основе современных требований. В отчете ЮНЕСКО о международном мониторинге образования за 2020 год о процессе подготовки будущих учителей к социально-педагогической практике высказано следующее мнение: « развитие национальных и общечеловеческих ценностей у будущих учителей, формирование аксиологических отношений к будущей педагогической деятельности, в результате чего будет достигнуто рассмотрение как первичное средство развития системы ценностей в демократическом обществе. В настоящее время наблюдается тенденция формирования содержания образования на основе этих отношений »¹⁹.

В мире проводятся научные исследования по развитию профессиональной компетентности будущих педагогов, обеспечению их социализации, разработке эффективных технологий развития системы ценностей, широкому использованию интерпретации наиболее эффективных методов педагогической науки, классификации и особенностям аксиологического компонента профессиональной компетентности. Результаты данного исследования повышают уровень подготовки будущих учителей к социально-педагогической деятельности на основе аксиологического подхода путем внедрения международных стандартов оценки качества образования и обучения и определения показателей качества деятельности высших учебных заведений. В ведущих научно-исследовательских институтах и высших учебных заведениях мира реализуется ряд научных исследований и научно-практических проектов, направленных на социально-педагогическую практику путем развития у студентов аксиологических отношений²⁰. В частности, в Словакии реализуются такие проекты, как «Аксиологический подход в университетских учебных программах» («Axiological Approach as a Factor of University Curriculum»), в Чили - «Аксиологический анализ образовательных проектов в школах» («Axiological Study of Educational Projects in Schools Chile»), в России - «Аксиологический компонент подготовки преподавателей-исследователей в классическом университете» («Axiological

¹⁹ UNESCO: Global Education Monitoring Report 2020. Inclusion and education: All means all. Summary//United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), 2020. – P. 9.

